

ISSN 2091-5527  
№ 1/2025

Ўзбекистон

# **K**ompozitsion **M**ateriallar

Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali



Ўзбекский научно-технический и производственный журнал  
**Композиционные материалы**

UDK 391(575.1) (035.3)

## XIX-XX ASRDA QASHQADARYO VA SURXONDARYO MILLIY KOSTYUMI MATERIALLARI. SURXONDARYO VA QASHQADARYO AHOLISINI KOSTYUMLARI

Raxmatullayeva U.S., Kamilova X.H., Mirziyodova K.B., Rasulova M.K.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo va Surxondaryo milliy kostyumi tarixi. Surxondaryo va Qashqadaryo aholisini kostyumlari shakllanishi, turli davrlarda matolarning hamda liboslarning rivojlanishining asosiy xususiyatlari haqida soʻz yuritilganligi bilan asoslidir.

**Kalit soʻzlar:** libos, qadimiy, anʼanaviy, sanʼat, madaniyat, Surxondaryo, Qashqadaryo, olacha, qalami, karbos, susi, janda, xosa, kashta.

**Kirish.** Oʻrta Osiyo sivilizasiyasining qadimiy hududlaridan biri boʻlgan Surxondaryo Oʻzbekiston janubida joylashgan boʻlib, u koʻp asrlar davomida oʻzining anʼanaviy sanʼati va moddiy madaniyatining oʻziga xosligi hamda turli xalqlar taqdiri bilan tutash boʻlgan.

Bu yerda joylashgan vodiylar va togʻlar, ayniqsa, daryolar yoqasidagi serunum yerlar, shuningdek, qulay iqlim sharoiti, qishloq va shaharlar paydo boʻlishiga asos boʻlgan. Surxondaryo hududi yon atroflarida Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Qiziltepa, Bandixon, Kampirtepa kabi vohaning yuksak madaniyatidan dalolat beruvchi koʻplab qadimgi yodgorliklar barpo etilgan.

Zamonaviy Surxondaryo asrlar davomida Baqtriya podsholigi va Kushon imperiyasi, Gʻaznaviylar, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va boshqa yirik va qadimiy davlatlar tarkibida boʻlgan. XX asr boshlariga qadar ushbu hudud Buxoro amirligining bir qismiga tegishli boʻlgan. [1]

Sirdaryo va Amudaryo oraligʻida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida qadimgi soʻgʻd elati va oʻtroq dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Qashqadaryoda miloddan avvalgi birinchi asrning boshidan ikkita asosiy voha - Qarshi va Shahrisabz vohalari shakllanadi.

Milloddan avvalgi 7-6 asrlarda Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi koʻplab aholi istiqomat qilgan. Kesh, Naxshab shaharlari paydo boʻlib rivojlangan. Qadimiy Baqtriya davlati tarkibiga Qashqadaryo vohasining bir qismi ham kirgan.

Tasviriy sanʼat asarlari orqali Surxondaryoning oʻtgan asrlardagi liboslari Oʻrta Osiyoning boshqa qabilalari liboslariga oʻxshash boʻlganligini kuzatish mumkin. Tasviriy manbalarda keltirilishicha, bu hudud erkaklari tanaga yopishib turadigan koʻylak, chakmon, ishton hamda choʻqqidor namat telpaklar kiyishgan. Ushbu liboslar bichimini keyingi davrlarda rivojlangan liboslarda ham koʻrish mumkin. [2]

Boysun – Surxondaryoning yirik va mashhur togʻli tumani hisoblanib, uning aholisi tarkibining kelib chiqishi Dashti Qipchoqdan boʻlgan yarim koʻchmanchi oʻzbek qoʻngʻirotlari, yuzlar, tojiklar

va turkmanlarni tashkil etgan. Tabiiyki, bu jarayon liboslarning oʻziga xos tarzda transformasiyalashuviga taʼsir koʻrsatgan. Boysunda ushbu xalqlar sanʼati va madaniyatining oʻziga xos xususiyatlari birlashgan holda, bejirim liboslarning yaratilishiga asos boʻldi.

Surxondaryo Oʻzbekistonning boshqa hududlariga nisbatan oʻzining qadimiy xususiyatlarini uzoq vaqt saqlab qolgan yorqin hududlardan biri hisoblanadi. Surxondaryoning qadimiy anʼanaviy liboslari bugungi kunda toʻliq oʻrganilmagan boʻlsada, bu yerda yashagan oʻzbeklar liboslarining asosiy xususiyatlari haqida soʻz yuritish mumkin. Ushbu hududda joylashgan vodi, togʻli va togʻ etagidagi tumanlar aholisining kiyinish madaniyati bir-biridan farq qilgan.

Boysun oʻzbeklari libosining bichimi koʻproq mahalliy tojiklar libosiga oʻxshash boʻlgan. Ular liboslarning uzunligi va kengligi, bezak berilishi, kiyinish uslubi, mato sifati hamda taqinchoqlari jihatidan farq qilgan. Liboslarni tikish uchun foydalanilgan matolar sirasi mahalliy hududlarning oʻzida ishlab chiqarilgan.

Jumladan, togʻli hududlarda yashovchi koʻchmanchi aholi asosan, qoʻy va echki terisidan tayyorlangan matolardan tikilgan liboslarni kiyishni afzal bilgan. Asosiy yashovchi aholi esa tabiiy matolar sirasiga kiruvchi boʻz, olacha, qalami, karbos, susi, janda, xosa kabi paxta matolar, shoyi, parpashsha, adras, beqasam, banoras kabi ipak va yarim ipak yoki fabrikada tayyorlangan matolardan foydalangan. Ushbu matolardan bayramlar uchun maxsus liboslar tikilgan. [3]

Qadimdan oʻzbek xalqi hunarmandchilik bilan kun kechirgan. Shuning uchun xalqimiz hunarmand kishilarga alohida hurmat-eʼtibor bilan qaraydi. Avvalo, hunarmandchilik soʻzining asl maʼnosini izohlaydigan boʻlsak, har xil mehnat qurollari yordamida mavjud xomashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqariladigan hunarlarning umumiy nomi hunarmandchilik deb yuritiladi. Bizlarga momolarimiz tomonidan avloddan avlodga meros boʻlib kelayotgan milliy hunarmandchiligimizning sir-asrorlari saqlanib, oʻrganilib kelinmoqda. Ana shunday hunarlardan biri “Quroq” usulida milliy kiyimlar, buyumlar tikish sanʼatidir.

Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari qadimda, asosan bolalar kiyimlarida qo'llanilgan. Keyinchalik bu texnika rivojlanib bordi va hunarmanchilikning ajoyib yo'nalishlaridan biriga aylandi. Surxon quroqlarining o'ziga xosligi shundaki, ularda yorqin ranglar ishlatilganligi va kashtalarning tikilganligidadir. Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari ham kashtalar kabi shakllarga ega bo'lib, ko'proq dumoloq va uchburchak shakllardan foydalanilgan. Asosan qizil, yashil, sariq va ko'k ranglardan tikilgan. [4]

XIX asrning ikkinchi choragida qoshg'ar matolari va ingliz chitlari urfga kirdi. Erkaklar libosi uchun odatda, turli olacha gazlamalari tanlangan. Olachipor rangli olachadan erkaklar choponi va ko'ylagi, alohida ishlov berilgan yuqori sifatli mahalliy paxta matosi jandadan esa ustki choponlar tikilgan.

Ayollar libosini tikishda mahalliy ishlab chiqarilgan matolar qatorida Buxoro, Qarshi kabi hududlarda tayyorlangan matolardan ham foydalanilgan.

Qashqadaryo liboslari ham o'ziga xos xususiyatlarga bo'ydir. Qashqadaryoda VII-VIII asrlarda iqtisodiy hayot rivojlangan. Bir necha yillar davomida Sug'd Kesh podsholari tomonidan idora qilingan. XIV-XV asrlarda Temur va Ulug'bek davrlarida Shahrisabz bir qancha mahobatli binolar-saroy, masjid va maqbaralar va boshqalar qurildi. Shahrisabz vohaning yetakchi shahriga aylandi.

Qashqadaryo viloyati ko'xna tarixi, qadimiy madaniyat yodgorliklari bilan mashhur. Viloyatdan buyuk olimlar, adib va shoirlar, mashhur san'atkorlar, baxshilar, xalq artistlari, rassomlar yetishib chiqqan.

Miniatura bizga ko'pgina tarix darchalarini ochib beradi, nafaqat yashash muxitini ularning hayot tarzini ko'rsatadi. Miniatura o'sha davrning liboslarini ko'rsatib bergan ulardagi rang, naqsh, liboslar tuzilishini korishimiz mumkin[5].

Amaliy – bezak san'atining noyob namunalari yaratgan ajdodlarimiz kelajak avlodlar uchun o'z nomini qoldirish masalasi ustida bosh qotirishmagan. Har kuni oila ehtiyoji va maishiy turmush uchun zarur mahsulotlar tayyorlashni o'zlarining kundalik yumushi deb bilishgan. Lekin ular bu kundalik yumushlarini ham qunt va mehr bilan bajarishgan. Shuning uchun o'tmishda yashab o'tgan tikuvchiyu zargarlar, ganchkoru kulollar, yog'och o'ymakorlariyu miniaturchilar yaratgan asarlar hozir ham bizni hayratga soladi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubiy qismida joylashgandir. Ushbu hudud tojik hamda turkmanlar bilan qo'shni tutingan bo'lib, vohada Shahrisabz va Qarshi kabi yirik shaharlar rivojlangan. XIX - XX asr boshlarida bu voha Buxoro amirligi tarkibiga kiritilgan. Bu esa o'z navbatida turk qabilalari (mang'it, kenagas va boshqalar) vakillari ko'p bo'lgan shahar aholisining kiyinishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. [6]

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.S.Rakhmatullaeva, S.Raximqulova. Surkhandarya jewelery and their symbols International Journal for Innovative Engineering and Management Research. 2020/11/11.
2. S.Raximqulova. Analysis and place of artistic elements in the Surkhandarya costume. EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL // journal impact factor: 7.235 //Spain, 2021.
3. Kamilova H.H., Rahimova Z.I., U.S.Raxmatullayeva. O'zbek milliy libosi va an'anaviy qadriyatlar. Monografiya.: G'afur G'ulom nomidagi nasrgriyot-manbaa ijodiy uyi. -Toshkent. -2018 y. -231 bet.
4. Kamilova, X. X., Rakhmatullaeva, U. S., & Raksimkulova, S. (2021). Analysis and place of artistic elements in the surkhandarya costume.
5. Raxmatullayeva U.S., Vaxidova U.A., Muminova U.T. Kostyum tarixi. Darslik.: "Lesson Press" MCHJ nashroyoti. -Toshkent. -2023 y. -534 bet.
6. Kamilova H., Rahimova Z., Muminova U., Raxmatullayeva U. O'zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo'yicha an'anaviy o'zbek liboslari. Kitob-albom. 1-qism. "Zamon-Press-Info Nashriyot uyi" MCHJ bazasida tayyorlandi. Nashr litsenziyasi AIN№ 289, 04.11.2016. "Silk Road Media" MCHJ. ISBN:978-9943-7500-1-2.

<b>U.S.Raxmatullayeva</b>	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Moda va dizayn" kafedrasida prof., f.f.n.
<b>X.H.Kamilova</b>	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Moda va dizayn" kafedrasida prof., t.f.d.
<b>K.B.Mirziyodova</b>	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, doktoranti
<b>M.K.Rasulova</b>	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, "Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring" kafedrasida prof., t.f.d.

<b>To'laboyeva Sh.S., Kasimova A.B.</b> Maxsus kompozitsion korset buyumlarini ishlab chiqarish va dizayn jarayonlarini tahlil qilish .....	177
<b>Худанов У.О., Кадиров Т.Ж., Шарифов Г.Н.</b> Применение коллагена в процессе производства цемента ...	181
<b>Abdurahimov X.A., Xudoyberdiyeva D.A.</b> Mahalliy xom-ashyolardan modifikatsiyalangan kaogulyantlar olish va ular bilan oqava suvlarni tozalash .....	185
<b>Tursunova F.J., Amonov M.P.</b> Neft-gaz sanoatida qo'llanilgan katalizatorlarni qayta ishlash texnologiyasini o'rganish .....	188
<b>Ibragimov T.E., Nurullaev Sh.P.</b> Clay adsorbents Cr <sup>6+</sup> adsorption ionization .....	192
<b>Махмудова Н.Х.</b> Исследование морозо- и коррозионностойкости бетонов гидротехнического и дорожного назначения .....	195
<b>Хасанов А.С., Ахмедов Ў.Ч., Хакимов К.Ж.</b> Обжиг сульфидных ренийсодержащих концентратов .....	198
<b>Raxmatullayeva U.S., Kamilova X.N., Mirziyodova K.B., Rasulova M.K.</b> XIX-XX asrda Qashqadaryo va Surxondaryo milliy kostyumi materiallari. Surxondaryo va Qashqadaryo aholisini kostyumlari.....	202
<b>Рахимов Х.Ю., Абдурахманова С.П., Ганиева Х.Б., Маматова Н.Н.</b> Разработка композиционных химических реагентов для стабилизации буровых растворов .....	204
<b>Raxmatullayeva U.S., Kamilova X.N., Mirziyodova K.B., Rasulova M.K.</b> XIX-XX asrlarda Xorazm aholisining milliy kostyumi, matosi va uning tuzilishi xususiyatlari .....	206
<b>Уринов А.А., Кадырханов Ж.М.</b> Современное состояние и перспективах развития противокоррозионной защиты магистральных трубопроводов с целью повышения их стойкости и долговечности .....	209
<b>Негматов С.С., Исмаилов Р.И., Раупова Д.Н., Рахимов Х.Ю., Мусабеков Д.Х.</b> Разработка эффективных составов композиционных химических реагентов - деэмульгаторов для обезвоживания эксплуатационных масел металлургических предприятий .....	211
<b>Негматов С.С., Мамасолиев Э.М.</b> Исследование влияния параметров шероховатости и свойств материала на коэффициент трения зацепления хлопковых волокон при взаимодействии с модельным эпоксидным образцом .....	216
<b>Рахимов Х.Ю., Юсупходжаева Э.Н., Аюбова И.Х., Халматова Н.Г., Билалова Д.Ж.</b> Нефть-газ бургилаш кудукларида қўлланиладиган маҳаллий хом ашё ва ишлаб чиқариш чиқиндилари асосида композицион эмульгаторлар таркибини олиш ва уларни физик-кимёвий ва технологик хоссаларини ўрганиш .....	220
<b>Уринов А.А., Кадырханов Ж.М.</b> Разработка композиционных материалов для защиты от коррозии магистральных газонефтепроводов, обладающих повышенной химической адгезией .....	222
<b>Кузибеков С.К., Баракаев Н.Р.</b> Физико-механические и биохимические свойства соевых бобов и расчет траектории движения воздушного потока в процессе очистки .....	224

#### 7. Вести из лаборатории

<b>Негматов С.С., Хурсанов А.Х., Негматов Ж.Н., Негматова К.С., Эрниёзов Н.Б.</b> Мис-молибден рудалардан олтин ва кумушни ажратиш олиш учун импорт ўрнини босувчи композицион кимёвий реагентларнинг самарали таркиблари ва олиш технологиясини ишлаб чиқиш долзарблиги .....	228
<b>Тургунов А.А., Абед Н.С., Салимова С.А., Икрамова М.Э.</b> Разработка композиционных материалов и применение их в рельефных элементах технологической оснастки строительных изделий .....	230
<b>Улугова М.М., Талипов Н.Х., Негматов С.С.</b> Композиционные гипсовые материалы для производства строительных изделий .....	231
<b>Абдукажоров А.А., Косимов Ш.Б., Абед Н.С., Негматов Ж.Н., Тухташева М.Н.</b> Исследование антифрикционно-износостойких свойств композиционных полипропиленовых материалов, работающих при фрикционном взаимодействии с хлопком-сырцом, для применения в рабочих органах хлопкоперерабатывающих машин и механизмов .....	233
<b>Касымова М.Н., Негматова К.С.</b> Исследование физико-механических и потребительских свойств, а также прочности окрасок хлопчатобумажных тканей, окрашенных красящими композициями .....	234
<b>Талипов Н.Х., Матякубова К.М.</b> Влияние отхода сахарного давода-дефеката на процесс формирования структуры полугидрата сульфата кальция .....	235
<b>Норхуджаев Ф.Р.</b> Цементациялаш ёрдамида пухталашнинг технологик режимларини пўлатнинг ейилишга бардошлиликка таъсирини тадқиқ қилиш .....	237
<b>Tashbayeva F.K., Ermatova A.A.</b> Distribution of heavy and toxic metal ions in the environment	240
<b>Негматов С.С., Эсанмуродов Ш.В., Негматова К.С., Салимова С.А., Икрамова М.Э.</b> Исследование физико-химических свойств ионов минерализованных пластовых вод .....	241